

IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALAR MIQDORI VA QASHSHOQLIK DARAJASINING QIYOSIY TAHLILI

Agabekov A. Y., i.f.n.

Ipak yoli innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada mamlakatlar iqtisodiyotiga solingan investitsiyalar ko'lamiga bilan ulardagi qashshoqlik darajasi orasidagi bog'liqlikning qiyosiy tahlili O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari misolida berilgan.

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ взаимосвязи между объемами инвестиций в экономику стран и уровнем бедности в них на примере Республик Узбекистан и Казахстан.

Kalit so'zlar: investitsiya, qashshoqlik, ishsizlik, daromad, asosiy kapital, mintaqa

Ключевые слова: инвестиции, бедность, безработица, доход, основной капитал, регион

Kirish. Ma'lumki Markaziy Osiyo mamlakatlarida qashshoqlik darajasi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori va ushbu mamlakatlarda qashshoqlikka qarshi ko'p chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Qashshoqlik darajasini pasaytirishning asosiy yollaridan biri - bu iqtisodiyotning samaradorligini oshirish bo'lib hisoblanadi. Amaliyot va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotiga solingan sarmoyalar miqdori bilan aholining turmush darajasi orasida uzviy bog'liqlik bor. Chunki iqtisodiyotga solingan investitsiyalar aholi uchun ish joylari tashkil etadi va daromad manbayi yaratadi. Shu sababli Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarda investitsiyalar miqdori bilan ulardagi qashshoqlik darajasi orasidagi bog'liqlik darajasini qiyosiy tahlil etish ilmiy jihatdan qiziqish uyg'otadi hamda dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Mintaqada asosiy ulkan iqtisodiyotli davlatlar O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va usullari. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari iqtisodiyotiga solingan investitsiyalar dinamikasi bilan qashshoqlik darajasi orasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan.

Tadqiqot natijalari ijobiy yondashish usuli, qiyosiy tahlil usuli va xulosa qilish usullarini foydalanish orqali olingan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Qashshoqlik muammosini tahlil qilish uchun uning paydo bo'lishining asosiy sabablarini hodisa sifatida tavsiflashdan boshlash kerak. Ko'pincha qashshoqlik ijtimoiy kasallik sifatida jamiyatning har bir a'zosining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun etarli bo'lgan ijtimoiy ishlab chiqarish

darajasini ta'minlay olmaydigan yoki ijtimoiy mahsulotni taqsimlashning samarali modelini yaratolmagan jamiyatlarda paydo bo'ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti zamonaviy dunyoda qashshoqlikning tarqalishiga yordam beradigan parametrlarning quyidagi ro'yxatini ta'kidlaydi: ta'limning past darajasi, ishchi kuchining past sifati, inklyuziv bo'lmagan jamiyat, tibbiyotning past sifati va boshqa demografik sabablar (aholining haddan tashqari ko'payishi, majburiy migratsiya), ziddiyatli vaziyatlar, mahsulotlarning raqobatbardoshligi pastligi, iqtisodiyotda jamoat tovarlarini taqsimlashning past samaradorligi, mehnat bozorining samarasiz tashkil etilishi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlarda qashshoqlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bir nechta tizimli muammolar mavjud. Ular orasida ishsizlik darajasi; fuqarolar va uy xo'jaliklarining o'rtacha daromad darajasi; iqtisodiy harakatchanlikning past darajasi; mintqa mamlakatlarining tsiklik va kumulatif xavflarga yuqori bog'liqligi va demografik omil.

Ushbu omillar Markaziy Osiyoda qashshoqlikning rivojlanishini tushunish uchun kalit hisoblanadi, ammo har bir mamlakatda ular turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Misol uchun, Qozog'iston qashshoqlikka qarshi kurashda eng katta yutuqlarga erishdi. Mamlakat Eyroosiyo iqtisodiy ittifoqi tarkibiga kiradi, bu milliy kompaniyalarga birlashish bozorlariga chiqish va aholi uchun ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda Qozog'istonda qashshoqlik darajasi 12,4 foizni tashkil etdi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, COVID-19 pandemiyasi davrida qashshoqlik darajasi 2016 yilga nisbatan 12-14 foizga o'sdi. O'rtacha daromaddan past bo'lgan shaxslar soni mamlakat aholisining 3,8 foizini tashkil etadi [1].

Qozog'iston iqtisodiyotiga qo'yilgan investitsiyalar holati.

Mustaqillik davrida Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotiga dunyoning 120 mamlakatidan mustaqillik yillarida 370 milliard dollar sarmoya kiritildi

Markaziy Osiyodagi barcha xorijiy investitsiyalarning 75 foizi Qozog'istonga to'g'ri keladi

Hududlar bo'yicha investitsiyalar bo'yicha Atyrau viloyati, Astana shahri, Olmaota shahri, shuningdek, Sharhiy Qozog'iston, Farbiy Qozog'iston, va Pavlodar viloyatlari beshtaligida yetakchilik qilmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalar. 2013-2023 yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar 3 baravar o'sdi – 6 dan 18 trln tenge (real ma'noda 2 baravar). Shu bilan birga, YaIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 16,9% dan 15,1% gacha kamaydi.

BNS ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda Qozog'istonda asosiy kapitalga investitsiyalar 17,6 trln tengeni tashkil etdi, bu 2022 yilgi ko'rsatkichdan (15,2 trln

tenge) real ko'rinishda 11,2 foizga ko'pdir. Investitsiyalar o'sishining yarmidan ko'pi energetikaga (+39 %), transport va omborga (+40 %), axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (2,3 baravar), shuningdek sog'liqni saqlashga (51 %)iok o'sishi bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, transport, energetika va sog'liqni saqlash sohalariga investitsiyalarning 34 foizi davlat byudjeti tomonidan ta'minlanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida investitsiyalarning o'sishini telekommunikatsiya kompaniyalarining 5G texnologiyalarini rivojlantirishga kiritgan sarmoyalari bilan izohlash mumkin.

Moliyalashtirish manbalari tarkibida investorlarning o'z mablag'lari (83,4%) ustunlik qiladi, ularning umumiy hajmi 14,7 trln tengeni tashkil etadi. Byudjet mablag'lari hajmi 2,9 trln tenge (16,6%) ni tashkil etadi, IOKDAGI qarz mablag'larining ulushi 10,6% (1,9 trln tenge) ni tashkil etadi, shundan ikkinchi darajali banklardan olingan kreditlar atigi 2,5% ni tashkil etadi (445,3 mlrd tenge).

10 yil ichida qarz mablag'larining ulushi deyarli 3 baravar kamaydi-31,4 % dan 10,6% gacha, byudjet mablag'larining ulushi esa 15-16% darajasida barqaror bo'lib qolmoqda.

Ichki investitsiyalarning umumiy hajmidagi ulushi 81,1 %, tashqi investitsiyalarning ulushi 18,9% ni tashkil etadi. 10 yil ichida tashqi investitsiyalar ulushi 14,6 foizga kamaydi – 33,5 foizdan 18,9 foizgacha. Bu pasayish g'arbiy hududlarda yirik neft va gaz loyihalari qurilishi yakunlanishi bilan bog'liq.

Sohalar kesimida investitsiyalarning 45,7 foizi 8,2 trillion tenge, shu jumladan tog' - kon sanoati uchun 4,8 trillion tenge, sanoatga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarish sanoatiga solingan invaestitsiyalar hajmi sanoatga investitsiyalarning umumiy hajmida 9,3% - ni tashkil qiladi yoki 1,7 trln tenge (2013 yil 11,4 %) [2].

Tahlil shuni ko'rsatdiki, investitsiya ko'proq solingan mintaqalarda qashshoqlik darajasi pastroq. Qozog'istonning muhim xususiyati uning kuchli ijtimoiy-iqtisodiy farqlanishidir; yirik shaharlar — Astana va Almata — boshqa mintaqalarga qaraganda yaxshiroq yashaydi. Kambag'al aholining eng ko'p soni qishloq joylarda — Turkiston, Jambil va Qaraqanda viloyatlarida (Qaraqandadan tashqari) to'plangan.

Sabablardan biri - Qozogiston iqtisodiyoti va infratuzilmasiga solingan investisiylarning asosiy qismi neft, alyuminiy qazib olish sohasiga va Actana hamda Almaty va boshqa shaharlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun u mintaqalarda qashshoqlik darajasi past. Qishloq joylariga investisiy juda oz solingan va u yerlarda qashshoqlik darajasi yuqori.

Undan tashqari, Qozog'istonda qashshoqlik darajasini pasaytirishda ta'lim sohasi muhim rol o'ynaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar o'rta ma'lumotli xodimlarga qaraganda o'rtacha 88% ko'proq maosh oladilar. Oliy o'quv yurtidan keyingi ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar oliy ma'lumotli ishchilarga qaraganda 57 foizga yuqori. Shu bilan birga, Qozog'istonda YaIM-ning atigi 4,8 foizi ta'lim sohasiga

sarflanadi (taqqoslash uchun: iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda o'rtacha 12,4 foizni tashkil etadi) [1].

Markaziy Osiyoda qashshoqlik va uning hosilalariga qarshi kurashish bo'yicha aniq chora - tadbirlar qatorida Qozog'iston hukumati tomonidan chet elda qozog'istonlik talabalar va mamlakat o'rtasidagi aloqani ularga stipendiyalar ajratish va Qozog'iston davlat hokimiyati organlarida ishlashga mumkinlik yaratish orqali saqlab qolishga imkon beradigan ikkita ta'lim dasturi - "Bolashak" va maktabgacha ta'lim sohasidagi "Balapan" dasturlari ham muhim rol o'ynayabdi.

O'zbekistondagi qashshoqlik. O'zbekistonda qashshoqlikning asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki, shahar aholisi undan qishloq aholisiga qaraganda ko'proq aziyat chekmoqda; kambag'allar soni (aholining 11%) nisbatan past bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda turmush darajasi past darajada qolmoqda.

O'zbekistonda qashshoqlik sharoitida ikkita o'ziga xos xususiyatni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, gap ichki iste'mol tovarlari bozorini monopollashtirish haqida ketyapdi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida tabiiy, davlat monopoliyalari va kartel kelishuvikeng tarqalgan. Ularning barchasi sun'iy tanqislikni yaratishga hissa qo'shadi.

Ikkinchidan, mamlakatda ta'limsifati nisbatan past darajada. 504 ming o'qituvchidan 60 ming nafari faqat o'rta maxsus ma'lumotga ega, 190 ming nafari esa malaka toifasiga ega emas. Shu sababli, milliy ta'lim maqsadga muvofiq darajada emas [3].

O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhiti, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng tizimi yaratildi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya qonunchiligi MDH mamlakatlari Qonunchilik tizimidagi eng ilg'orlardan biri bo'lib, xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalarini, xususan, xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash, investorlar uchun muayyan preferensiyalar berish to'g'risidagi nizomlarni va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasidagi huquqiy tartibga solishning asosi quyidagilardan iborat:

- "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida" gi qonun;
- "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonun;
- "Xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish kafolatlari va chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun;
- "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun,

- shuningdek, qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar [4].

Mustaqil rivojlanish yillarida O'zbekiston iqtisodiyotiga 100 milliard dollardan ortiq investitsiyalar jalb etildi, ularning 35 milliard dollardan ortig'i xorijiy investorlarning to'g'ridan-to'g'ri va imtiyozli mablag'lari hisoblanadi [5].

O'zbekiston hukumati 2035 yilgacha mamlakatni rivojlantirish strategiyasi kontsepsiyasida SMART usullaridan faol foydalanmoqda, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy 6 rivojlanishdagi asosiy "og'riqli nuqtalarni", yani ichimlik suvidan foydalanish muammolari, aholining qarishi, ta'limdan tengsiz foydalanish va ijtimoiy infratuzilmaning zaif rivojlanishi kabi muammolarni aniqlashga imkon beradi [6]

O'zbekiston qashshoqlikka qarshi kurashishda Xitoy tajribasini qo'llanmoqda. Xitoy tajribasi asosida O'zbekistonning har bir viloyatining tumanlaridan birida qashshoqlikdan qutulish dasturi amalga oshiriladi. Yaqinda ushbu mamlakatda XXR tajribasini o'rganish uchun o'zbekistonlik amaldorlar delegatsiyasi tashrif buyurganligi va ular muammoni hal qilishning yangi yondashuvlari bilan tanishganligi aniqlandi. Ma'lumki, Xitoydan kelgan mutaxassislar O'zbekiston bandlik va qashshoqlikni kamaytirish vazirligiga jalb qilingan. Loyihani amalga oshirishda hokimiyat yo'l-transport, energetika, kommunikatsiya va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, qashshoqlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda mahallalarni sanoatlashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi batafsil ko'rib chiqildi. Ushbu maqsad uchun: - 15 trln so'm (1,3 mlrd dollar) imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratildi; - qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish uchun 200 ming gektar yer ajratildi; - 300 mingga yaqin biznes sub'ektlari tashkil etildi; - 20 ming korxona faoliyati kengaytirildi. Davlatning sa'y-harakatlari tufayli 2022 yilda bir million kishi qashshoqlikdan chiqarildi. 2023 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun O'zbekiston 13 trln so'm (1,1 mlrd dollar) kredit va 1,5 trln so'm (131 mln dollar) subsidiya ajratildi [7].

Ta'kidlanishicha, subsidiyalarning 37 turi mavjud, ammo qo'llab-quvvatlash shartlari hamma uchun bir xil. Respublikada kambag'allikni qisqartirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va 2023 yilda 5 million kishini ish bilan ta'minlash va 2 million doimiy ish o'rni yaratish zarurligi to'g'risida vazifa qo'yildi. 2022-yil yanvar oyidan boshlab O'zbekistonda qashshoqlik chegarasi bir kishi uchun oyiga 498 ming so'm (46 dollar) yoki kuniga 16,6 ming so'm (1,53 dollar) darajasida belgilandi. Mamlakatimizda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mavjudligini tan olgan O'zbekiston hukumati tomonidan qashshoqlikka qarshi choralar va u keltirib chiqarayotgan masalalarga e'tibor qarataylik. Aholining kambag'al guruhlarini uy - joy bilan ta'minlash uchun ikkita dastur - "Obod qishloq" va "Obod mahalla" tashkil etildi. Ushbu dasturlar doirasida 1500 dan ortiq qishloq va shaharlarda ijtimoiy va yo'l-transport infratuzilmasi ob'ektlari jihozlandi. Respublika hukumati hali ham asfalt yo'llar va ichimlik suvi bilan markazlashtirilgan ta'minotga ega bo'lmagan aholi

punktlari mavjudligini tan oladi. Mamlakat hokimiyatining qashshoqlikka qarshi kurashdagi asosiy vazifasi "ijtimoiy himoyani kuchaytirish" va aholining kambag'al va muhtoj qatlamlariga maqsadli moddiy yordam ko'rsatishdir, ya'ni asosiy e'tibor qashshoqlik muammosini hal qilishdan ko'ra, aholini moddiy qo'llab - quvvatlashga qaratilgan[8].

O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasida ulkan iqtisodiy salohiyat mavjud. Markaziy Osiyo davlatlari dunyo investorlarining sarmoyalarini jalb qilish uchun samarali ishlar olib borishmoqda. Xususan, sarmoyadorlarda energetika, transport va geologiya sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish katta qiziqish uyg'otmoqda. Sog'liqni saqlash, turizm, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati yo'nalishlarida loyihalar taklif etilmoqda.

Jumladan, Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 2023-moliya yilida Markaziy Osiyodagi loyihalarga 1,6 milliard dollardan ortiq mablag' kiritdi. XMK-ning faoliyati mintqa uchun rekord darajada moliyalashtirishi o'sishni qo'llab-quvvatlash, mintaqaviy aloqalarni yaxshilash va iqlimga chidamlilikni mustahkamlashga qaratilgan. Jahon banki guruhining a'zosi bo'lgan XMK rivojlanayotgan bozorlarda xususiy sektorga yo'naltirilgan eng yirik global rivojlanish institutidir. U 100 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yuritadi. IFC 2023-moliya yilida rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy kompaniyalar va moliya institutlariga rekord darajadagi 43,7 milliard dollar ajratdi, bu iqtisodiyotlar chuqurlashib borayotgan global inqiroz ta'siri bilan kurashayotgan bir paytda o'ta qashshoqlikka barham berish va xususiy sektorning kuchidan foydalangan holda umumiy farovonlikni yaxshilashga xizmat qiladi [9].

XMK Markaziy Osiyoda eng katta portfelga ega bo'lgan O'zbekistonda 2023-moliya yilida investitsiyalar qilingan kapital jami 1,568 milliard dollarni tashkil etdi, bu korporatsiyaning 1993 yilda mamlakatda faoliyatini boshlaganidan beri eng yuqori ko'rsatkichdir. Shundan 49 million dollari 2025-yilda foydalanishga topshirilishi kutilayotgan O'zbekistondagi birinchi Zarafshon shamol elektr 471 stansiyasini moliyalashtirishga yo'naltirildi. Bundan tashqari, IFC 150 million dollarlik moliyalashtirish paketini taqdim etdi va Sirdaryo viloyatida zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi qurilishi uchun 1 milliard dollardan ortiq xususiy moliyalashtirishni jalb qilishga yordam berdi. Ushbu loyihalar mamlakatning elektr energiyasiga bo'lgan o'sib borayotgan talabini qondirishga yordam beradi va uni karbonsizlantirish va energiyaga o'tish harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Undan tashqari Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevropaga yashil energiyaz eksport qilish imkoniyatiga ega. Bu loyiha O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida quyosh va shamol energiyasidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini Yevropaga sotish uchun infratuzilmani yaratishni nazarda tutadi. O'zbekistonda, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro

viloyatlarida muqobil energiya ishlab chiqarish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud. Eng yangi texnologiyalardan foydalangan holda infratuzilma yaratish rejalashtirilgan

Xulosa.

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti zamonaviy dunyoda qashshoqlikning tarqalishiga yordam beradigan parametrlarning quyidagi ro'yxatini ta'kidlaydi: ta'limning past darajasi, ishchi kuchining past sifati, inklyuziv bo'lmagan jamiyat, tibbiyotning past sifati va boshqa demografik sabablar (aholining haddan tashqari ko'payishi, majburiy migratsiya), ziddiyatli vaziyatlar, mahsulotlarning raqobatbardoshligi pastligi, iqtisodiyotda jamoat tovarlarini taqsimlashning past samaradorligi, mehnat bozorining samarasiz tashkil etilishi.

2. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatib beradi, mamlakatlar iqtisodiyotiga solingan investitsiyalar miqdori bilan ulardagi qashshoqlik darajasi orasida uzviy bog'liqlik mavjud, investitsiya ko'proq solingan mintaqalarda qashshoqlik darajasi pastroq. Kapitalga solingan investitsiyalar ish joylarini qurishga, aholining ish bilan bandligini oshirishga va daromadini ko'tarishga imkon yaratadi.

3. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda Qozog'istonda qashshoqlik darajasi 12,4 foizni tashkil etdi. Qozog'istonning muhim xususiyati uning kuchli ijtimoiy-iqtisodiy farqlanishidir; yirik shaharlar — Astana va Almata — boshqa mintaqalarga qaraganda yaxshiroq yashaydi. Kambag'al aholining eng ko'p soni qishloq joylarda — Turkiston, Jambil va Qaraqanda viloyatlarida (Qaraqandadan tashqari) to'plangan.

4. O'zbekistonda qashshoqlikning asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki, shahar aholisi undan qishloq aholisiga qaraganda ko'proq aziyat chekmoqda; kambag'allar soni (aholining 11%) nisbatan past bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda turmush darajasi past darajada qolmoqda.

5. O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasida ulkan iqtisodiy salohiyat mavjud. Markaziy Osiyo davlatlari dunyo investorlarining sarmoyalarini jalb qilish uchun samarali ishlar olib borishmoqda. Xususan, sarmoyadorlarda energetika, transport va geologiya sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish katta qiziqish uyg'otmoqda. Sog'liqni saqlash, turizm, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati yo'nalishlarida loyihalar taklif etilmoqda. 2025-yilda O'zbekistonda 43 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilgan.

6. Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevropaga yashil energiyaz eksport qilish imkoniyatiga ega. Bu loyiha O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida quyosh va shamol energiyasidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini Yevropaga sotish uchun infratuzilmani yaratishni nazarda tutadi. O'zbekistonda, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlarida muqobil energiya ishlab chiqarish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud. Eng yangi texnologiyalardan foydalangan holda infratuzilma yaratish rejalashtirilgan. Ayni

paytda loyihani amalga oshirish uchun texnik shartlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular kelajakda Markaziy Osiyo va Yevropani bog'lovchi infratuzilmaning asosiga aylanadi. Ushbu investitsiyalar loyihalari o'z navbatida ish joylarini yaratish va aholi daromadini oshirishga imkoniyatlar tug'diradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [www. Kapital.kz](http://www.Kapital.kz)
2. 2029 yilgacha Qozog'iston Respublikasining investitsiya siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. Qozog'iston Respublikasi hukumatining 2024 yil 18 oktyabrdagi 868-sonli qarori.
3. C:\Users\USER\AppData\Local\Temp\Rar\$Dia0.091\O'zbekistonda qashoshoqlikka qarshi kurash.docx
4. <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/48-economica-news2/investitsionnyj-klimat/>
5. <https://www.google.com/search>
6. . O'zbekiston Respublikasini 2035 yilgacha rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasi // URL: https://static.norma.uz/official_texts/Концепция-Развития_Узбекистана-RUS.pdf (kirish sanasi: 11.07.2022).
7. C:\Users\USER\AppData\Local\Temp\Rar\$Dia0.091\O'zbekistonda qashoshoqlikka qarshi kurash.docx
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori.
9. www.facebook.com/IFCwbg. O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisi 2023 yil 3- may.